

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUSTA'LIM VAZIR
LIGI ALISHER
NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

HUQUQSHUNOSLIK FAKULTETI

«Umumiy huquqshunoslik» kafedrası

REFERAT

Mavzu: Fuqarolik-huquqiy javobgarlik

Bajardi: 201-guruhtalabasi Niyatov U.

Tekshirdi: dos. A.G'ulomov

SAMARQAND – 2013

FUQAROLIK-HUQUQIYJAVOBGARLIK

REJA:

- 1 .Fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasi
- 2.Javobgarlik shartlari va miqdori
- 3.Javobgarlikdan ozod qilishining asoslari

1. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasi

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasi aniqlash

uchun uni «sanksiya» tushunchasi bilan qarama-qarshi qo'yish

zarur. Fuqarolik-huquqiy sanksiyalar qarzdor majburiyatni bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda uning uchun qonunda belgilangan ma'lum oqibatlarning yuzaga kelishi hisoblanadi. Sanksiyalar bir xil bo'lmasdan, ularni ikki guruhga ajratish mumkin.

1) himoya choralari ko'rinishidagi sanksiyalar;

2) Javobgarlik choralari ko'rinishidagi sanksiyalar.

Himoya choralari - huquq-tartibotni himoya qilish yoki buzilgan huquq va manfaatlar to'g'risida ogohlantirish yoxud ularni tiklashga yo'naltirilgan choralar hisoblanadi. Bir qator himoya choralari sudlar, xo'jalik sudlari, boshqalari esa vakolatli hisoblangan subyektlarning' (yuridik shaxslar, fuqarolar) o'zlari tomonidan qo'llanilishi mumkin.

Biroq barcha hollarda himoya choralari davlat majburlovchi bilan ta'minlangan. Qoidaga ko'ra himoya choralari qo'llanilishi huquqbuzar uchun salbiy mulkiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi. Himoya choralari hech vaqt aybdorning hulqini, muhokama qilish bilan bog'liq emas.

1. Quyidagilar fuqarolik qonunchiligiga ma'lum bo'lgan himoya choralari hisoblanadi: fuqaro o'zining sha'ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar yuzasidan boshqasi bunday ma'lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo'li bilan raddiya talab qilishga haqli (FKning 100-m, 1-q), bitim haqiqiy bo'lmaganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo'yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingan narsani asliga (shu jumladan olingan narsa mol-mulk deb foydalanishi, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat bilan ifodalanganda) qaytarib berish mumkin bo'lganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa, uning o'ziga qarashli tarix yoki madaniyat yodgorligiga

xo'jasizlarcha munosabatda bo'lsa va uning yaxshi saqlanishini ta'minlamasa, zimmasida yodgorliklarni saqlash vazifasi bo'lgan davlat organlari mulkdorlarni yodgorlikka xo'jasizlarcha munosabatda bo'lishini to'xtatish haqida ogohlantiradilar. Agar mulkdor ushbu talabni bajarmasa, tegishli organlarning da'vosiga ko'ra sud yodgorlik davlat mulki bo'lishi haqida qaror chiqarishi mumkin. Bu yodgorlik davlat mulkiga o'tadi. Olib qo'yilgan tarix va madaniyat yodgorligining qiymati mulkdorga kelishuvda belgilanmagan, nizo chiqqan taqdirda esa sud tomonidan belgilangan miqdorda to'lanadi (FKning 190-m.) va boshqalarni aytish mumkin.

Fuqarolik huquqi nazariyasida fuqarolik-huquqiy javobgarlikka nisbatan bir qator ta'riflar ishlab chiqilgan: javobgarlik shartnoma nufuzini oshiradi, turli ta'sir choralari yordamida taraflarning buzilgan huquqlarini tiklaydi. Javobgarlik taraflar mulkiy manfaatlarining himoyasini ta'minlaydi, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy talablarini taqdim etish uchun imkoniyat yaratadi. Javobgarlik huquqbuzar manfaatlariga zid bo'lgan mulkiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik o'ziga xos uchta majburiy belgisiga ega: 1) davlat majburlovi bilan ta'minlanganligi 2) huquqbuzar (qarzdor) tomoniga salbiy noxush oqibatlarning mavjud bo'lishi; 3) huquqbuzarlik va uning subyektini muhokama qilish.

Davlat majburlovi - bu huquq normalarida belgilangan javobgarlik choralarini realizatsiya qilish davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadi. Qarzdor (huquqbuzar) uchun noxush salbiy oqibatlar uning mulkining haqi to'lanmasdan olib qo'yilishi. Bu esa uning mulkining kamayishiga olib keladi.

Muhokama qilish - bu sodir qilingan huquqbuzarlik va uning subyektiga nisbatan davlat va jamiyatning negativ reaksiyasi (salbiy munosabati) hisoblanadi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik huquqiy munosabatlarda realizatsiya qilinadi.

Demak, javobgarlik - huquqiy munosabat hisoblanadi. Uning mohiyatini aubdor qarzdorning ma'lum harakatni amalga oshirish majburiyati va bu majburiyat ijrosini kreditor tomonidan talab qilish huquqi tashkil qiladi. Javobgarlik subyekti qarzdor hisoblanadi (zarar yetkazuvchi sifatida ba'zan boshqa shaxslari bo'lganda ham). Agar qonun hujjatlarda yoki shartnomada bevosita ijrochi bo'lgan uchinchi

shaxsning javobgarligi belgilab qo'yilmagan bo'lsa, zimmasiga majburiyatni bajarish vazifasi yuklatilgan uchinchi shaxslarning majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun qarzdor javob beradi (FK 334-m). M: bosh pudratchi buyurtniachining pudrat shartnomasi ba'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozimdarajada bajarilganligi (yordamchi pudratchi uchun) uchun uning oldida javobgar hisoblanadi (FK 634-m, 2-q). Ushbu holatni transport ekspeditsiyasi shartnomasida ham ko'rish mumkin. FKning 730-moddasiga ko'ra, agar transport ekspeditsiyasi shartnomasidan ekspeditorning o'z majburiyatlarini shaxsan bajarishi sharti kelib chiqmasa, ekspeditor o'z majburiyatlarini bajarishga boshqa shaxslarni jalb qilishga haqli. Majburiyatni bajarishni uchinchi shaxs zimmasiga yuklash ekspeditorni transport ekspeditsiyasi shartnomasining bajarilishi uchun mijoz oldidagi javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Demak, yuqorida qayd etilgan belgilarni hisobga olgan holda fuqarolik-huquqiy javobgarlik huquqbuzarlik va uning subyektini birga muhokama qilishni ko'zda tutuvchi, davlat majburlovi bilan ta'minlangan, huquqbuzar(qarzdor tomoniga) mulkiy yoki nomulkiy: xarakterdagi noxushoqibatlar ko'rinishida ifodalanadigan huquqiy munosabat hisoblanadi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. Ular quyidagilardan iborat:

1) ogohlantirish- tarbiyalash funksiyasi. Javobgarlikning bu funksiyasi huquqbuzarlik haqida ogohlantirish va uni bartaraf qilishdan iborat. M: majburiyatni bajarishdan. Birtorinlama bosh tortishga yo'l qo'yilmas (FK 237-m), zarar yetkazishning oldini olish (FK 986-m). FKning 986-moddasiga ko'ra, kelgusida zarar yetkazilishi xavfi borligi bunday xavfni yuzaga keltiradigan faoliyatni taqiqlash to'g'risida da'vo qo'zg'atish asos bo'lishi mumkin. Agar yetkazilgan zarar, zarar yetkazishni davom ettirayotgan korxona, inshootdan foydalanish yoxud boshqa ishlab chiqarish faoliyatining oqibati bo'lsa, sud javobgarga zararni qoplashdan tashqari tegishli faoliyatni to'xtatib turishi yoki tugatishi majburiyatini yuklashga haqli.

2) jazolash funksiyasi. Bu huquqbuzarga qo'shimcha

noxushmajburiyatlarniyuklashhisoblanadi.Ulardavlatmajburlovi bilan taminlangan.Fuqarolik-huquqiy jazo boshqa maqsadni ko'zda tutmaydi.U o'ch olish goyasi bilan umumiy emas (qonga-qon; jonga-jon).

3) qoplovchi funksiya. Bu jabrlanuvchi(kreditor)ning ko'rgan noxush oqibatlarini qarzdor hisobidan bartaraf qilishda namoyon bo'ladi.

4) xabar beruvchi funksiya. Huquqbuzarlikning yuzaga kelishiga yordam beruvchi qarzdorning xulq-atvoridagi kamchiliklar haqida guvvhlik beradi.Bu hamkorlarni tanlashda ularni odindan bilishda juda qo'l keladi.

Fuqarolik – huquqiy javobgarlikning tamoyillari:

1. Javobgarlikning muqarrarlighar qanday huquqbuzarlikka nisbatan javobgarlik qo'llaniladi. Fuqarolik huquqida javobgarlikning muqarrarlighi da'vo muddatlari cheklanisiy mumkin emas.

2. Fuqarolik – huquqiy javobgarlikning individuallighi- harbir javobgarlik ma'lum bir faktlar mavjud bo'lganida vujudga keladi. Bularga ijtimoiy xavflilik darajasi, zararning mavjudligi, huquqbuzar aybining shakllari va boshqalar. Masalan: FKning 1022-moddasi 1- qismiga ko'ra , ma'naviy zararni qoplash miqdori jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy va ma'naviy azoblarning xususiyatiga, shuningdek , ayb va tovon to'lashga asos bo'lgan hollarda zarar yetkazuvchining aybi darajasiga qarab sud tomonidan aniqlanadi. Jismoniy vama'naviy azoblarning xususiyati ma'naviy zarar yetkazilganhaqiqiy holatlar va jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olingan holda sud tomonidan baholanadi.

3. Yetkazilganzararni to'liq hajmda undirish tamoyili. Javobgarlik bilan qarzdornimgmajburiyatini bir xilda baholamaslik kerak.Qarzdorning majburiyatini bajarishi bu qarzdorning harakati hisoblanib,umummajburiyat mohiyatini tashkil etadi.Javobgarlik esa qarzdor majburiyatini ixtiyoriy .tarzda bajarmagan taqdirda yuzaga keladi.

Javobgarlik yuklanganligi majburiyatni bajarishga qanday ta'sir

qiladi? FKning 330-m, 1-qismiga ko'ra, qonunda yoki shartnornada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, majburiyat lozim darajada bajarilmagan taqdirda neustoyka to'lash va zarami qoplash qarzdorni asl holidagi majburiyatini bajarishdan ozod qilmaydi. Quyidagicha hollarda majburiyat bajarilmagan taqdirda zararni qoplash va uning bajarilmaganligi uchun neustoyka to'lash qarzdorni majburiyatni asl holidagi (natura) bajarishdan ozod qiladi Jumladan,kechiktirib yuborish oqibatida o'zi uchun ahamiyatini yo'qotgan, ijroni kreditorning qabul qilishdan bosh tortishi (FK 337r-m, 2-q); voz kechish haqi tarzida belgilangan neustoykani to'lash (FK 342-m). FKning 342,-moddasiga ko'ra, taraflarning kelishuviga muvofiq majburiyat uni bajarish , o'rniga voz kechish haqini berish (pul to'lash, mol-mulk berish) bilan bekor qilinishi mumkin.

Agar majburiyat bo'yicha qarzdor ashyoni tayyorlash va kreditorga mulk qilib, xo'jalik yuritishga yoki operativ boshqarishga topshirish yoxud ashyoni foydalanish uchun kreditorga berish yoxud uning uchun muayyan ishni bajarish yoki unga xizmat ko'rsatish majburiyatini bajarmagan taqdirda kreditor, agar qonun hujjatlaridan, shartnomadan yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa,uchinchi shaxslarga majburiyatni oqilona muddatda, oqilona baholarda ijro etishni topshirishga yoiniki uni o'z kuchlari bilan bajarishga hamda qarzdordan qilinganzarur xarajatlarniva boshqa zararni to'lashni talab qilishga haqli (FK 328-m).

Agar majburiyat bo'yicha qarzdor xususiy belgili ashyonikreditorning mulki qilib, uning xo'jalik yuritishga, operativboshqaruvga yoki foydalanishga topshirishi majburiyatibajarilmagan taqdirda kreditor qarzdordan bu ashyoni olibqo'yishni va majburiyatda nazarda tutilgan shartlar asosida o'ziga topshirishni talab qilishga haqli. M: ijara shartnomasibo'yicha.

Biroq bu huquq ashyo bir xil huquqqa ega bo'lgan uchinchishaxsga topshirilgan bo'lsa, bekor bo'ladi.Agarashyo hamtopshirilmagan bo'lsa, vaziyat qaysi kreditorning foydasigaoldinroq vujudga kelgan bo'lsa, o'sha kreditor ustuhlikka ega bo'ladi, basharti buni aniqlash mumkin bo'lmasa, oldin da'vo qo'zg'atgan kreditor ustunlikka ega bo'ladi. Kreditormajburiyatnarsasi bo'lgan ashyoni

o'ziga topshirishni talab qilish o'rnigazarning qoplanishini talab qilishga haqli.

2. Javobgarlik shartlari va miqdori

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortish uchun qonundanazarda tutilgan ma'lum shartlar mavjud bo'lishi loziml. FKning 333-m, 1-qismiga ko'ra, qarzдор aybi bo'lgan taqdirda majburiyatnibajarmaganligi yoki lozim darajadabajarmaganligi uchun, agar qonun hujjatlarida uokishartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, javob beradi. Fuqarolik huquqbuzarlikning to'liq tartibi quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi.1) huquqqa xilof xulq-atvor; 2) zararning mavjudligi; 3) huquqqa xilof xulq-atvor bilan zarar o'rtasidagi salbiy bog'lanish; 4) aybning mavjudligi.

Huquqqa xilof xulq-atvor qonun normalarini hamda shaxslarningsub'yektivhuquqlarini buzishga yo'naltirilgan harakat yoki harakatsizliklar hisoblanadi. Harakat huquqqa xilof harakatlar kasbetadi. Masalan: majburiyat lozim darajada bajarilmasayoki huquqiy hujjatlarda yohud shartnomada belgilangan shartlar doirasida bajarilmagan taqdirda vujudga keladi. Shu bilan qonunchilik bilan ta'qiqlangan haraktklar ro'yxatini to'liq keltirmagan. Tijorat sirini oshkor qilish (FK 98-m); haqiqiy bo'lmagan bitimlar tuzish. (FK 113-125m) huquqqa xilof harakathisoblanishi mumkin.

Harakatsizlikni huquqbuzarlik, ya'ni shartnoma shartlarigajavob bermaydigan hatti- harakat deb hisohlash uchun uningbajarilishi yuridikahamiyatgaega bo'lishi kerak va shartnomataraflariga yuklatilgan bo'lishi kerak. M: mahsluotni yetkazibbermaslik, agrotexnik ishlarning bajarilmasligi.

Ba'zi harakatlar tashqi tomondan ; huquqbuzarlik ko'rinishlarini o'zida ifodalasa ham, natijada zarar kelib chiqqan taqdirda, ham huquqqa xilof harakat hisoblanmaydi. M: FKning 987-m, zaruriy mudofaa holatida zarar yetkazish - zaruriy mudofaa holatida, yetkazilgan zarar mudofaa chegarasidan chiqilmaganbo'lsa, to'lanmaydi.

Quyidagilar zarar keltirib chiqaradigan, biroq huquqqa xilof harakatlar hisoblanmaydi.

1. Biz qator mutaxassislar o'zlarining professorial funksiyalarini

bajarayotgandagi harakatlari (o'to'chiruvchilar o't o'chirayotganda mebellarga zarar yetkazgan bo'lsalar).

2. Qonun hujjatlarida belgilangandoirada jabrlanuvchiga uning roziligi bilan zarar yetkazish. M: sog'lom insonda xavfli bo'lgantibbiyekspimento'tkazish. -

3. Qonun hujjatlarida belgilangan doirada o'zming huquqlarini, amalga oshirish. M: mulkdortomonidan o'z uyining buzib tashlanishi.

Fuqaroli huquqida ishlatiladigan «zarar» tushunchasi iqtisodiyot fanlari va xo'jalik amaliyotida qo'llaniladigan zarar tushunchasidan birmuncha farq qiladi. V.I. Kofmanning fikricha, iqtisodiy ma'nodagi zarar kelib chiqishi uchun huquqbuzarlik bo'lishi shart emas, huquqiy - ma'nodagi zarar deganda esa g'ayriqonuniy hatti-harakat oqibatida jabrlanuvchi mulkiga yetkazilgan salbiy natija tushuniladi⁴. Zarar uni yetkazgan shaxsni jazolash uchun emas, balki shartnomaning buzilishi oqibatida yetkazilgan ziyonni qoplashga xizmat qiladi¹⁵. Zarar - subyektiv fuqarolik huquqi va ne'matlarining kamyishiva yo'q qilinishi hisoblanadi. Zarar- shaxsning o'ziga yoki mulkka yetkazilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, rus tilida «убытка», «Vred», «ущерб» tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgisi sifatida «убытка» so'zi qo'llaniladi. «Vred» va «ущерб» ko'pincha sinonim sifatida qaraladi hamda u birinchidan, fuqarolik-huquqiy javobgarlik shartlaridan birini yokifuqarolik huquqbuzarlik tarkibi elementini anglatasa, ikkinchidan dialekt majburiyatlar bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tahlil etishida ishlatiladi. «Vred» va «ubtka» tushunchalari bir-biriga moskelmaydi. Vred keng tushuncha bo'lib, u mulkiy va nomulkiy zarar(vred)ni ham qamrab oladi. «Ubtka» tushunchasi «vred», «ущерб» so'zlari kabi o'zbek tilida «zarar» ma'nosini ariglatadi².

Fuqarolik kodeksining 14-m, 2-qismiga binoan, zarar

⁴Ишффе О. С. «Обязательственные права» 100.

⁵Дектярев С. Я «Возмещение убытков в гражданском и арбитражном процессе». – М. 2001. – С. 39

¹Abdusamatov M. Ro'zinazarov Sh. Ruscha-o'zbek sud huquqiyatamavaiboralar lug'ati. – 2002. – 77 b.

deganda, kreditorning buzilgan huquqinitiklash uchunqilgan yoki qilishi lozim bo'lgan sarf-xarajatiari, uning mol-mulkiningyo'qolishi yoki shikastlanishi, shuningdek, qarzdor majburiyatini bajarganida u olishi mumkinbo'lgan lekin,ololmay qolgandaromadlar tushuniladi. Demak, yetkazilganzararni shartliravishda ikki qismga ajartish mumkan: 1)qililingan sajf-xarajatlar mulkning, yo'qolishi yoki shikastlanishi(haqiqiy zarar); 2) olinmay qolgan daromad (boy berilganfoydada).

Haqiqiy zarar - agar shaxsning sog'ligiga zarar yetkazgan bo'lsa, dori-darmon olish uchun, kuchli oyqatanish uchun, kurortlarda davolanish uchun qilgan xarajatlari va boshqalar kiradi. Tashish shartnomasi bo'yicha tashish predmeti bo'lgan yo'qotib qo'yilgan bo'lsa , zarar yuk qiymati doirasida bo'ladi. Haqiqiy zarar – mulkka zararyetkazish oqibatida ya'ni huquqbuzarlik natijasida mulkning qiymati tushib ketishi murnkin. M: kolleksiya ashyolaridan birining o'girlanishi, kolleksiya bahosiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

G'ayrihuquqiy hatti-harakat bilan uning oqibatlari o'rtasidagi sababiy bog'liqlik huquqbuzarlik tarkibining asosiy elementlaridan biridir. G'ayriqonuniy hatti-harakat bilan oqibat sifatidagi uning natijasi o'rtasidagi bog'liqlik bo'lmasa, fuqarolik-huquqiy javobgarlik ham vujudga kelmaydi. Shartomamajburiyatlari bo'yicha javobgarlikning asosi sifatidagisababiy bog'lanish bog'lanish javobgarlik chegaralarini belgilashda katta anamiyatga ega. Jumladan, kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha o'z vaqtida yetkazib berilgan, tez buziladigan qishloq xo'jaligi mahsulotini tayyorlovchi korxona o'z vaqtida qabul qlinmaganligi bilan mahsulot sifatining pasayib ketishi va u kam narxda baholanishi o'rtasida sababiy bog'liqlik bo'lishi muqarrar. Amaliyotda ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasidagi shartomaviy munosabatlarda sababiy bog'liqlik masalasini hal etish ancha murakkab bo'ladi. Negaki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning o'ziga xosligi va asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilah bog'liqligi, mahsulotni yetishtirishga va uning hosildorligiga esa ob-havo hamda boshqa obyektiv omillar bilan birga turli xil subyektiv omillar ham ta'sir etadi.

Sababiy bog'lanish hodisasini aniqlash nihoyatda murakkab hisoblanadi. M: mijozning sifatsiz doridan vafot etishi. Biroq uni kimdir yozgan, kimdir bergan, ishlab chiqargan; sifatininazorat qilgan; kimdir uni ishlab chiqarish uchun uskunalarini tayyorlagan va boshqalarni keltirish mumkin. Muammoshundan iboratki, qayerda va qachon o'rganilayotgan hodisaning sababini va tekshiruvni ajratib olish kerak. Fanda sababiy bog'lanishni aniqlashning «aniq formulasi» yo'q. Ba'zibir ishlarda sababiy boglanishni aniqlashda "ekspertizaga tayaniladi. Sud-tibbiyot, sud-tovarshuhoslik, sud-texnika ekspertizalari xulosasi aniq xarakter kasb etadi.

Fuqarolik - huquqiy javobgarlikka tortishishning muhim shartlaridan biri shartnomaviy majburiyatlarini bajargan tarafning aybi hisoblanadi. Ayb - bu shaxsning huquqqa xilof xulq-atvori va uning natijalariga nisbatan qasdyoki ehtiyotsizlik shaklidagi psixik munosabatdir. Qasd shaklidagi ayb bo'lishida shaxs majburiyatni ongli ravishda, atayin bajarmaydi yoki lozim darajada bajarilmaydi. Ehtiyotsizlik - bu zararli oqibatlarda vujudga kelishni oldindan ko'ra bilmaslik yoki ularni to'xtatishga yengil yondoshganligi hisoblanadi. FKning 333-moddasiga binoan shartnomia majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik agar qonunhujjatlari va shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, javobgarlik qarzdorning aybi bo'lsagina qo'llaniladi. Fuqarolik huquqida qarzdorning aybsizlik prezumpsiyasi amal qiladi. Agar qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarishi uchun o'ziga bog'liq hamma choralarni ko'rganligini isbotlasa, u javobgarlikdan ozod qilinadi. Fuqarolik - huquqiy javobgarlik miqdorini aniqlashda yetkazilgan zarardan tashqari shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafning aybdorlik darajasi ham hisobga olinishi lozim. Jumladan, to'lash imkoni bo'la turib to'lovni amalga oshirmaganligi, ataylab o'zini to'lovga qobiliyatsizlik-kreditorlik qarzlari haqida solishtirma dalolatnomalar tuzishdan bo'yin tovlaganligi va h.k. aybdorlik darajasini og'irlashtiruvchi, aksincha qarzni tan olib, uni to'lashga harakat qilganligi, qarzini tasdiqlovchi taqqoslash dalolatnomalarini imzolaganligi va h.k. aybdorlik darajasini yengillashtiruvchi holatlar sifatida baholanishi lozim.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning shakli ikkiga ajraladi:

1) Zararni to'lash

2) Neustoyka undirish

Yetkazilgan mulkiy zarar uchun neustoykaning miqdori qonunda yoki shartnomaning o'zida to'g'ridan-to'g'ri belgilab qo'yiladi. Shu sababli neustoyka hisoblash qiyinchilik tug'dirmaydi. Shu sababli kreditor taraflar kelishuvida ko'zda tutilmagan bo'lsada, qonunda nazarda tutilgan neustoykani to'lashni talab qilishga haqli.

Zararni undirish miqdorini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi:

a) qarzdordan zararni, ixtiyoriy yoki majburiy undirish (sud orqali) kreditorning talabini qondiradimi?

b) majburiyatni bajarish joyida qanday narx-navo mavjud?

v) huquqni buzuvchi qarzdor uning natijasida daromad ko'rdimi? Kreditor huquq buzilishi oqibatida qarzdor ko'rgan foydadan kam bo'lmagan miqdorda boy berilgan foydani undirishni talab qilishga haqli.

Agar qarzdor kreditorning talablarini ixtiyoriy qanoatlantirgan bo'lsa, zararining hajmi majburiyat qanoatlantirilgan kunda mavjud bo'lgan narxlar e'tiborga olinadi. Agar qarzdor kreditorning talablarini ixtiyoriy qanoatlantirmagan bo'lsa, sud vaziyatga qarab da'vo qo'zg'atilgan kunda mavjud bo'lgan narxlar yoki zararni to'lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo'lgan narxlarni e'tiborga olgan holda qanoatlantirilishi mumkin. Biroq bu norma dispozitiv xarakterga ega. Chunki qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha holat ko'zda tutilishi mumkin.

Agar zarar mulkka yetkazilgan bo'lsa, ba'zan u natura shaklida undirilishi mumkin. M: dilekt majburiyatlarda sud, zararni qoplash to'g'risidagi talabni qanoatlantirar yekan, ish holatlariga muvofiq ravishda, yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxsga zararni aslicha qoplash (o'shunday turdagi va sifatdagi ashyonitaqdim etish, shikastlangan ashyoni tuzatish vahokazo) yuklashi mumkin (FK 1003 -m). Shartnomaviy majburiyatlarda, sotib oluvchiga sifati tegishli darajada bo'lmagan tovar sotilganida u xuddi shu markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bolgan tovarga almashtirishni talab qilisli huquqiga ega (FK 434-

m, l-q). Bu holat qarzdor chun noxush mulkiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Chunki u bu kamchiliklarni o'zining hisobidan amalga oshiradi.

Javobgarlik miqdorini kamaytirish barcha mavjud vaziyatlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Unda quyidagi holat e'tiborga olinadi.

1) Majburiyatnibajarmaslikyokilozimdarajadabajarmaslikdaikkalatarafningh amaybibo'lsa (aralashjavobgarlik). M:
konservazavodsudgayetkazilganzararnifermerxo'jaligidanundirishniso'rabda'vobila nmurojaatqilyapti. Sabab, fermerxojaligimahsulotni (pamidor, kartoshka) topshirmagan.
Biroqsudishholatlarinio'rganishnatijasidajarimaniyarminiundiribberyapti.
Chunkisudzavodhamo'zzimmasigaolganmajburiyatnibuzgandeganxulosagakelgan: mahsulotuitegishlisur'atdaqabulqilishnitashkilqilmagan (avtomashinanio'zvaqtidayubormagan).

2) Agar kreditor qasddan yoki ehtiyotsizlik qilib zarar miqdorining ko'payishiga yordamlashgan yoxud uni kamaytirish uchun oqilona choralar ko'rmagan bo'lsa.

Qonunchilikda alohida turdagi majburiyatlar uchun javobgariik miqdorini aniqlashda qo'shimcha qoidalarini ko'zda tuitadi. Boshqa shaxslarning pul mablag'larini g'ayriqonuniy ushlab qolish, ularni qaytarib berishdan bosh tortish, ularni to'lashni boshqacha tarzda kechiktirish yoxud boshqa. shaxs hisobidan asossiz olish yoki jamg'arish natijasida ulardan foydalanganlik uchun ushbu mablag'lar summasiga foiz to'lanishi kerak. Foizlar miqdori kreditor yashaydigan joyda, kreditor yuridik shaxs bo'lganida esa, uning joylashgan yerida pul, majburiyati yoki uning tegishli qismi bajarilgan kunda mavjud bo'lgan bank foizining hisob stavkasi bilan belgilanadi.

Qarz sud tartibida undirib olinganida sud kreditorning talabini da'vo qo'zg'atilgan kundagi yoki qaror chiqarilgan kundagi bank foizining hisob stavkasiga qarab qondirishi mumkin.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning alohida yana bir shakli bu **neustoyka** hisoblanadi. Neustoyka atamasi rus tilidan olingan bo'lib, ne ustoyal, ya'ni «vzyal

slovo, obyazatelstvo, no ne vyplnil» degan ma'noni beradi. O'zbek ulida bergan so'zing, va'dangning ustidan chiqmading, ya'ni subutsizlik degan, tushunchani bildiradi⁷. Majburiyatni buzgan shaxslarga nisbatan qonunda va shartnomada belgilangan hollarda jarima va penya ko'rinishida neustoyka qo'llanilishi mumkin. Fuqarolik kodeksining 260-moddasiga ko'ra, qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi neustoyka hisoblanadi. Neustoyka to'lash haqidagi talab bo'yicha kreditor o'ziga yetkazilgan zararni isbotlashga majbur emas. Neustoyka bilan faqat haqiqiy talab ta'minlanadi. Agar qarzdor majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmasa, kreditor neustoyka to'lashni talab qilishga haqli emas.

Neustoyka (shtraf, penya) eng ko'p tarqalgan va amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan majburiyatlarni ta'minlash usuli va fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasi hisoblanadi. Amaliyotchi olim V.V.Vitryanskiy fikricha, neustoyka majburiyatning bajarilishini ta'minlash usuli hamda fuqarolik-huquqiy javobgarlikning shakli sifatida quyidagi belgilari bilan xarakterlanadi:_____

⁷ Rahmonqulov H.R. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1997. -B.445.

⁸ Braginskiy M.I. Vitryanskiy, V.V. Dogovornoye pravaknigapervaya. 2001. ~C.661.

a) u majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda sud qaroriga asosan yoki qarzдор tomonidan ixtiyoriy undiriladi;

b) neustoykaning mazmunini majburiyatni buzgan qarzdorning qo'shimcha iqtisodiy yo'qotishga tortilish majburiyati tashkil etadi;

v) neustoyka ham zarar kabi fuqarolik-huquqiy javobgarlik kelib chiqishi uchun zarur bo'lgan shartlar mavjud bo'lgandagina qo'llaniladi;

g) majburiyatni buzgan qarzdorning neustoyka to'lash majburiyati davlat majburlovi bilan ta'minlanadi, shu sababli u fuqarolik huquqlarini sud orqali himoya qilish vositalari qatoriga kiradi⁸.

Neustoyka kreditorga yetkazilgan zararining qoplashni eng qulay vositasi hisoblanadi. Neustoykaning bu xususiyati uning quyidagi belgilarida ko'riladi.

1) Neustoyka miqdori oldiridan belgilanadi hamda majburiyatlar vujudga kelish vaqtida neustoykaning miqdori uning taraflariga ma'lum bo'ladi.

2) Neustoykani undirish imkoniyati kreditorga yetkazilgan zarar va uni isbotlashga bogliq bo'lmagan holda, huquqbuzarlik faktining mavjud bo'lishi yetarli bo'ladi.

3) Neustoyka miqdorini o'zgartirish, belgilashda taraflar o'zaro kelishib bu imkoniyatni amalga oshirishi mumkin.

Neustoyka fuqarolik kodeksi 260-moddasi 1-qismiga muvofiq qarzдор va kreditor o'rtasida majburiyatni ta'minlaydi, ya'ni fuqarolik-huquqiy majburiyatni. Shu sababli fuqarolik-huquqiy bo'lmagan munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda qo'llaniladigan, sanksiya sifatida o'rnatilgan turli ko'rinishdagi jarimalarni neustoyka sifatida baholamaslik kerak. M.: soliq, moliya, ma'muriy-huquqiy munosabatlarni.

Neustoykani tashkil qiluvchi pul summalarini hisoblash tartibi turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan: majburiyat summasining yoki uning bajarilmagan qismining foizi ko'rinishida, pul birliklarida ifodalangan qat'iy pul summasida va boshqalar tarzida.

Neustoyka bir qator belgilariga ko'ra turlarga ajraladi.

Shakliga ko'ra neustoyka:

- 1) jarima;
- 2) penya ko'rinishida bo'ladi.

Jarima bilan penyaning farqi Fuqarolik kodeksida belgilanmagan. Qarzdor majburiyatlarni bajarilmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda to'laydigan va qoida tariqasida qat'iy pul summasida hisoblatiladigan neustoyka jarima hisoblanadi. Qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to'laydigan va o'tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka penya hisoblanadi.

Neustoyka, kim tomonidan o'rnatilishiga qarab:

- 1) qonuniy neustoykaga;
- 2) shartnomaviy neustoykaga ajraladi.

Neustoyka to'g'risidagi kelishuv uning summasidan qat'i nazar yozma shaklda tuziladi. uning yozma shakliga: rjoya qilmaslik neustoyka haqidagi kelishuvni haqiqiy emasligiga olib keladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, «Xo'jalik, yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunida ilk bor xo'jalik shartnomalarining amalda ko'p uchraydigan buzilishi holatlari uchun javobgarlik choralari ko'zda tutildi. Qonunning 25-moddasiga ko'ra, tovarlarni yetkazib berish muddatini buzganlik uchun tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qilishning 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi. Ammobox bunda penyaning umumiy stavkasi

bajarilagan majburiyatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi kerak. Tovarlar sifati talabga javob bermaganda sotib oluvchi tovarlarni qabul qilishni rad etib, yetkazib beruvchidan sifatsiz tovarlar qiymatining 20 foiz miqdorida¹ jarimani undirib olishga haqli. Jarima esa yetkazib beruvchidan akseptsiz (uning rozilgisiz) tartibda undirib olinadi. Jarimani hisobdan chiqarish to'g'risidagi to'lov talabnomasi bankka tovarlar sifati, assortimenti lozim darajada emasligi to'g'risidagi dalolatnoma tuzilgandan keyin 10 kundan kechiktirmay taqdim etiladi.

Neustoykarii imdirish va zararni qoplashga oid huquqqa bo'lgan munosabatdan kelib chiqib neustoyka 4 ga ajraladi:

1. Hisobga o'tkaziladigan neustoyka. Bunda zarararning neustoyka bilan qoplanmagan qismi to'lanadi.

2. Alohida neustoyka: Bunda zarar undirilmasdan faqat neustoykaning o'zi undiriladi.

3. Jarimali neustoyka. Bu kreditorga qarzdordan neustoykaning o'zini, shuningdek, neustoykadan tashqari zararni ham tola hajmda undirish huquqini beradi.

4. Alternativ neustoyka. Bunda kreditor yo yetkazilgan zararni yoki neustoykani to'lashni talab qiladi.

Neustoykaning miqdori qonun yoki shartnoma bilan o'natilishiga qaramasdan kamaytirilishi mumkin. Neustoykani to'liq to'lashdan ozod qilishga yo'l qo'yilmaydi. Neustoyka miqdorini kamaytirish huquqi sudga tegishli bo'lib, u quyidagi vaqlda yuzaga keladi. Agar tolanishi lozim bo'lgan neustoyka kreditorning majburiyatlarini buzish oqibatlariga nomutanosibliigi ko'rinib tusa (FK 326-m).

Amaliyotda shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javabgarlikni to'g'ri qo'llashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Oliy xo'ajlik sudi Plenumining 1995-yil 5-fevraldagi «Xo'jalik sudlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodksining javobgarlik to'g'risidagi qoidalarini qo'llashning ayim masalalari haqida»gi 77-sonli qarori amal qilmoqda.

Qaroraing 3-bandidaagarbittamajburiyatbuzilganbo'lib, buninguchunshartnomadahamjarimashaklidaneustoykato'lashnazardatutilganhollar da, qonunchilikdaboshqachaholatnazardatutilmaganbo'lsa, kreditorfaqatginabirshakldagineustoykaqo'llanilishinitalabqilishgahaqliekanligiko'rsatilgan. Sudlar tomonidan neustoyka miqdorini belgilashda Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2002-yil 4-martdagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunini xo'jalik sudlari amaliyotida qo'llashning ayrim masalalari haqida»gi qarori⁹ muhim amaliy ahamiyatga ega. Uning 13-bandida ko'rsatilishieha, sudlar neustoyka (penya, jarima) miqdorini aniqlashda shartnomaning qaysi band talablari qanchalik darajada buzilganligi, taraflar taqdim etayotgan hisob-kitoblarda qaysi davr uchun va qancha miqdorda javobgarlik ko'zda tutilayotganligini, u qaysi, qonun yoki shartnomaning bandiga asosan belgilanganligini asoslantirishlari, zarar hollarda neustoykaning hisob-kitobini qayta hisoblab chiqishlari, taraflarning talabi bilan mutaxassislarni hisob-kitoblarni aniqlash uchun jalb etishlari, ekspertiza tayinlashlari lozimligi qayd etilgan.

3. Javobgarlikdan ozod qilish asoslari

Ma'lumki, majburiyatlar umumiy qoidalariga ko'ra, majburiyat shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va, talablar bo'lmaganida esa - ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak. Agar majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qonunhujjatlaridayokishartnomadaboshqachatartibbelgilanmagan bo'lsa, qarzdor aybi bo'lgan taqdirda, javob beradi.

Basharti, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo'lmaganligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi. Quyidagi holatlarni fors-major sifatida qarash lozim: tabiathodisalari (suv bosishi, zilzila, sunami, qum ko'chishi, qor bosishi, vulqonlarning harakatga kelishi). Bir qator ijtimoiy hodisalar (harbiy harakatlar, diplomatik munosabatlarning barham topishi, epidemiya tarqalishi) esa yengib bo'lmas kuch hisoblanmaydi. «Fors-major» holatlarini quyidagi holatlardan binning mavjudligi bilan bog'lash lozimligi to'g'risida huquqshunos olim O.Oqyulov Xalqaro savdo Palatasi tomonidan ta'kidlangan holatlarni ko'rsatib bergan¹⁰:

a) e'lon qilingan va e'lon qilinmagan urushlar, shu jumladan fuqarolar urushi, tartibsizliklar, isyonlar, inqiloblar, qaroqchilik, sabotaj;

b) tabiiy ofatlar, ya'ni bo'ron, siklon, zilzila, suv toshqini, yashinurush;

v) portlash va yong'in natijasida mashinalar, qurilmalar, asbob-uskunalarining ishdan chiqishi;

g) baykotlar, ish tashlashlar, lokautlar, ishni sekinlashtirishlar, fabrikalarni va ish joylarini bosib olishlar, korxonadagi ish tashlashlar;

d) hokimiyatning qonuniy va noqonuniy harakatlari;

Qarzdorning shartlashuvchi sheriklari tomonidan majburiyatlarning buzilishi,

majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozordayoqligi, qarzdor dazarpul mablag'larining bo'lmaganligi fors -major sifatida baholanmasligi lozim. Majburiyat-huquqiy munosabatlarida kreditomingshartnoma bo'yicha o'ziga tegishli narsani qabul qilishni kechiktirib yuborishi natijasida qarzdorga yetkazilgan zararni undirib olish huquqini beradi. Shu bilan birga qarzdor o'z zimmasiga olgan majburiyatini lozim darajada bajara olmasa javobgarlikdan ozod bo'ladi. Istisno tariqasida qarzdoming qasddan ish tutishi yoki qo'pol ehtiyotsizlik qilish hollari bunday huquqni unga bermaydi. Pul majburiyatlar yuzasidan kreditor ijroni kechiktirib yuborgan vaqt uchun qarzdor Ebiz to'lashga majbur bo'lmaydi.

Bundan tashqari, tovarning sotuvchisi yoki tayyorlovchisi, ishning (xizmatning) ijrochisi, zarar yengib bo'lmas kuch ta'sirida yoki iste'molchi tovarlarni saqlash yoki ulardan (ishning natijalaridan, xizmatlardan) foydalanish yuzasidan belgilangan qoidalarini buzishi oqibatida yetkazilgan] igini isbotlagan hollarda javobgarlikdan ozod qilinadi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan ozod qilishda yana quyidagi holatlar e'tiborga molik bo'la oladi

1) Hodisa - bunda majburiyat ishtirokchilarining aybi mavjud bo'lmaydi. Chunki hodisani oldindim ko'rib bo'lmaydi. M: ta'mirlash uchun pudratchiga berilgan ashyoning uchinchi shaxs tomonidan binoni tagini tsshib qasddan o'g'irlanishi. Bunday hodisani qarzdor oldindan ko'rolmaydi va ko'rishi ham mumkin emas.

2) Kreditor (jabrlanuvchi)ning aybi FK 1004-m, 1-qismiga ko'ra, jabrlanuvchining qasddan ish ko'rishi natijasida yuzaga kelgan zarar to'lanmaydi.